

**THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN
PROVIDING YOUTH EMPLOYMENT**

Fergana State Technical University, Economics 2nd year student

Azimova Marjona

Annotation

This article scientifically analyzes the economic and social importance of small business and entrepreneurship in ensuring youth employment. The article covers the issue of youth employment in Uzbekistan, the role of small business entities in the labor market, mechanisms for supporting entrepreneurship, the importance of youth startups, family entrepreneurship, home-based work and self-employment. It also analyzes the role of financial resources, education, digital technologies, innovative approaches and state programs in the development of youth entrepreneurship.

Keywords: Youth employment, small business, entrepreneurship, labor market, self-employment, young entrepreneur, jobs, economic activity, innovation, startup, family entrepreneurship, economy of Uzbekistan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, uning mehnat resurslaridan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liq. Mehnat resurslari tarkibida yoshlar alohida o'rin tutadi. Chunki yoshlar jamiyatning eng faol, yangilikka intiluvchan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni tez egallaydigan qatlamidir. Shu sababli yoshlar bandligini ta'minlash har qanday davlatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yoshlar bandligi masalasi faqat ish bilan ta'minlash muammosi emas. U kengroq mazmunga ega bo'lib, yoshlarning jamiyatdagi o'rni, iqtisodiy mustaqilligi, kasbiy rivojlanishi, daromad manbalariga ega bo'lishi va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog'liqdir. Agar yoshlar mehnat bozorida munosib o'rin topa olsa, ular o'z oilasi va jamiyat farovonligiga hissa qo'shadi. Aksincha, yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa, bu ijtimoiy muammolar, daromadlar tengsizligi va iqtisodiy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlar salmog'i yuqori bo'lgan mamlakatlardan biridir. Shu bois yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish, tadbirkorlikka jalb qilish va mustaqil daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yoshlar bandligini ta'minlashda eng samarali iqtisodiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Kichik biznesning asosiy afzalligi shundaki, u katta kapital talab qilmaydi, tez tashkil etiladi, mahalliy bozor ehtiyojlariga moslashadi va ko'p sonli ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega. Shu jihatdan kichik biznes yoshlar uchun o'z g'oyasini amaliyotga tatbiq etish, kasbiy tajriba orttirish, mustaqil faoliyat yuritish va kelajakda yirik biznesga aylanish imkoniyatini beradi. O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida kichik tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar, kafilliklar va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari nazarda tutilgan. Ayrim holatlarda tijorat banklari va

mikromoliya tashkilotlariga mikrocredit miqdorini 300 million so‘mgacha oshirish imkoniyati berilgani ham kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Yoshlar bandligi deganda mehnatga layoqatli yoshlarning iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishi, ya‘ni ular tomonidan mehnat faoliyati orqali daromad topilishi tushuniladi. Bandlik rasmiy ish joyida ishlash, o‘zini o‘zi band qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, kasanachilik, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish yoki boshqa qonuniy faoliyat shakllarida namoyon bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy nuqtayi nazardan yoshlar bandligi ishlab chiqarish omillaridan biri bo‘lgan mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalaydi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish mamlakatda yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga, soliqlar tushumining ko‘payishiga, aholi daromadlarining o‘shishiga va ichki bozor faolligining kuchayishiga olib keladi. Shu sababli bandlik masalasi iqtisodiy o‘shish bilan bevosita bog‘liqdir. Yoshlar bandligini ta‘minlash ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhimdir. Ishsiz yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishda qiynalishi, daromad manbalarining yo‘qligi sababli ijtimoiy muammolarga duch kelishi mumkin. Band yoshlar esa o‘z kelajagini rejalashtiradi, oilasiga yordam beradi, kasbiy tajriba orttiradi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi.

Jahon bankining O‘zbekiston yoshlar bandligi bo‘yicha tadqiqotida mehnat bozoridagi asosiy muammolar qatorida ish o‘rinlari yaratish sur‘atining mehnatga layoqatli aholi o‘shishiga har doim ham mos kelmasligi, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi va professional malaka tizimining yetarli darajada rivojlanmagan qayd etilgan. Bu holat yoshlar bandligini ta‘minlashda faqat davlat ish o‘rinlariga tayanish yetarli emasligini, balki kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish shakllarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Yirik korxonalar odatda katta investitsiya, murakkab boshqaruv tizimi va uzoq muddatli ishlab chiqarish jarayonlarini talab qiladi. Kichik biznes esa nisbatan kam mablag‘ bilan boshlanishi, tez tashkil etilishi va mahalliy ehtiyojlarga moslashishi bilan ajralib turadi.

Kichik biznesning bandlikka ta‘siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangi ish o‘rinlari yaratadi. Masalan, kichik tikuvchilik sexi, oziq-ovqat ishlab chiqarish ustaxonasi, xizmat ko‘rsatish markazi yoki savdo do‘koni bir nechta yoshni ish bilan ta‘minlashi mumkin. Ikkinchidan, kichik biznes bilvosita bandlikni ham oshiradi. Ya‘ni bir tadbirkor faoliyati transport, xomashyo yetkazib berish, reklama, qadoqlash, servis va boshqa sohalarida qo‘shimcha ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Uchinchidan, kichik biznes yoshlarning o‘zini o‘zi band qilishiga imkon beradi. Masalan, yoshlar tikuvchilik, sartaroshlik, dasturlash, grafik dizayn, onlayn savdo, repetitorlik, oziq-ovqat tayyorlash, hunarmandchilik yoki qishloq xo‘jaligi xizmatlari orqali mustaqil daromad topishi mumkin. Bu holatda yoshlar nafaqat ish qidiruvchi, balki ish beruvchi yoki iqtisodiy faol shaxsga aylanadi.

Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar–sentabr oylarida O‘zbekistonda 62,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari asosan savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari sohalarida ko‘p bo‘lgan. Bu sohalarning ko‘pchiligi yoshlar mehnati va tashabbusini faol jalb qila oladigan yo‘nalishlar hisoblanadi.

Kichik biznes iqtisodiyotda raqobat muhitini ham shakllantiradi. Raqobat esa mahsulot sifati oshishi, narxlarning barqarorlashuvi va xizmatlar xilma-xilligining ko‘payishiga olib keladi. Yosh tadbirkorlar bozorga yangi g‘oya, yangi xizmat turi va zamonaviy marketing yondashuvlarini olib kiradi. Shu sababli kichik biznes nafaqat bandlikni ta‘minlaydi, balki

iqtisodiyotga innovatsion ruh ham olib kiradi. Yoshlar tadbirkorligi — bu yoshlarning o‘z biznes g‘oyalarini amalga oshirishi, mahsulot ishlab chiqarishi, xizmat ko‘rsatishi yoki innovatsion loyihalarni yo‘lga qo‘yishi bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatdir. Yoshlar tadbirkorligining birinchi muhim jihati — iqtisodiy mustaqillikdir. O‘z biznesiga ega bo‘lgan yosh o‘z daromadini mustaqil shakllantiradi, mehnat natijasini bevosita his qiladi va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchi jihati — innovatsion fikrlashdir. Yoshlar zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron savdo va raqamli xizmatlardan faol foydalanadi. Shu sababli yosh tadbirkorlar an‘anaviy biznesga yangi usullarni olib kiradi. Masalan, Instagram orqali savdo qilish, Telegram-botlar yordamida buyurtma qabul qilish, onlayn kurslar tashkil etish, mobil ilova orqali xizmat ko‘rsatish yoki frilans platformalarda ishlash yoshlar orasida kengayib bormoqda. Uchinchi jihati — hududiy rivojlanishdir. Yoshlar tadbirkorligi faqat yirik shaharlarda emas, balki tuman va qishloqlarda ham ish o‘rinlari yaratishi mumkin. Masalan, qishloq joylarda issiqxona, parrandachilik, chorvachilik, hunarmandchilik, maishiy xizmat, tikuvchilik yoki kichik ishlab chiqarish korxonalari yoshlar bandligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturlar amalga oshirilmoqda. 2024-yildan yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirish belgilangan. Shuningdek, “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan. Bu kabi chora-tadbirlar yoshlarning biznes g‘oyalarini amaliy loyihaga aylantirishiga yordam beradi.

Kichik biznes yoshlar ishsizligini kamaytirishda bir nechta iqtisodiy mexanizm orqali ta’sir ko‘rsatadi. Eng avvalo, kichik biznes yangi ish joylari yaratadi. Bunda ish o‘rinlari ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, ta’lim, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda yuzaga keladi. Ikkinchi mexanizm — o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatidir. Har bir yosh yirik korxonada ish topa olmasligi mumkin. Ammo u o‘z bilimi, hunari yoki qobiliyati asosida kichik faoliyat boshlashi mumkin. Masalan, bir yosh tikuvchilikni bilsa, uy sharoitida buyurtma asosida kiyim tikishi; kompyuter dasturlarini bilsa, grafik dizayn yoki SMM xizmatlarini ko‘rsatishi; qishloqda yashasa, tomorqa yoki chorvachilik orqali daromad topishi mumkin. Uchinchi mexanizm — kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kichik biznes yoshlarni real mehnat jarayoniga jalb qiladi. Yoshlar mijoz bilan ishlash, hisob-kitob qilish, mahsulot ishlab chiqarish, xarajat va daromadni tahlil qilish, reklama yuritish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi. Bu esa ularning kelajakdagi mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. To‘rtinchi mexanizm — mahalliy resurslardan foydalanishdir. Kichik biznes ko‘pincha mahalliy xomashyo, mahalliy ishchi kuchi va mahalliy bozor talabiga tayanadi. Bu esa hududlarda iqtisodiy faollikni oshiradi. Ayniqsa, yoshlar yashaydigan mahalla va qishloqlarda kichik biznesning rivojlanishi migratsiyani kamaytirish, oila daromadlarini oshirish va mahalliy infratuzilmani jonlantirishga xizmat qiladi. Beshinchi mexanizm — ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bandligini oshirishdir. Kichik biznesning ayrim turlari uy sharoitida yoki moslashuvchan ish vaqtida bajarilishi mumkin. Bu esa yosh ayollar, nogironligi bo‘lgan yoshlar yoki ta’lim olayotgan talabalar uchun ham qulay bandlik shakllarini yaratadi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar tadbirkorligi an‘anaviy biznes doirasidan chiqib, raqamli xizmatlar va onlayn platformalar bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Internet, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron to‘lov tizimlari va raqamli marketing yoshlar uchun biznes boshlash xarajatlarini kamaytirdi. Masalan, avvallari mahsulot sotish uchun alohida

do'kon, ombor va katta reklama mablag'i kerak bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda yosh tadbirkor ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z mahsulotini reklama qilishi, buyurtma qabul qilishi va yetkazib berish xizmatlari orqali mijozga yetkazishi mumkin. Bu holat ayniqsa talaba-yoshlar uchun qulaydir, chunki ular o'qish bilan birga kichik onlayn biznes yuritishi mumkin.

Raqamli tadbirkorlikning yana bir yo'nalishi frilans faoliyatdir. Dasturlash, tarjima, dizayn, kontent yaratish, video montaj, SMM, data analysis va onlayn ta'lim xizmatlari yoshlar uchun yangi daromad manbalarini yaratmoqda. Bunday faoliyatda yoshlar geografik joylashuvdan qat'i nazar, turli mijozlar bilan ishlashi mumkin. Raqamli ko'nikmalar yoshlar bandligini ta'minlashda yangi sifat bosqichini yaratmoqda. Endi ish topish faqat jismoniy ish joyiga bog'liq emas. Kompyuter, internet va kasbiy bilimga ega yoshlar masofadan turib ham daromad topishi mumkin. Bu esa O'zbekiston yoshlarining xalqaro mehnat bozoriga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Yoshlar bandligini ta'minlashda davlat dasturlari muhim rol o'ynaydi. Chunki yoshlarning hammasi ham mustaqil ravishda biznes boshlash uchun yetarli mablag', tajriba yoki bilimga ega bo'lmasligi mumkin. Shu bois davlat tomonidan kreditlar, subsidiyalar, kasb-hunarga o'qitish, biznes-reja tayyorlash, maslahat xizmatlari va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaratilmoqda. Yoshlar ishlari agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda 414 mingdan ortiq yosh bandlik va tadbirkorlik dasturlari orqali qo'llab-quvvatlangan. Bu ko'rsatkich yoshlar bandligi davlat siyosatining amaliy yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyihalar doirasida O'zbekistonning qishloq hududlarida mikro, kichik va o'rta biznes egalari yordam berilayotgani, 15 mingdan ortiq biznes egalari ko'mak ko'rsatilgani va 22 ta yangi biznes inkubator tashkil etilgani qayd etilgan. Ushbu inkubatorlar ayniqsa yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan.

Davlat qo'llab-quvvatlashining samaradorligi shundaki, u yoshlarning biznes boshlashdagi dastlabki to'siqlarini kamaytiradi. Masalan, kredit mablag'i boshlang'ich kapital vazifasini bajaradi, o'quv kurslari kasbiy bilim beradi, biznes inkubatorlar esa loyiha ustida ishlash, bozorni tahlil qilish va investor topishda yordam beradi. Ammo bu jarayonda faqat mablag' ajratish yetarli emas. Yosh tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, kredit mablag'laridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, marketing va soliq bo'yicha amaliy ko'nikmalar berish ham zarur. Aks holda biznes loyihalar uzoq muddatli natija bermasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bandligini ta'minlashda kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratadi, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshiradi, ularni mustaqil daromad topishga undaydi va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi. Tadbirkorlik esa yoshlarni faqat ish izlovchi emas, balki ish yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Kichik biznesning afzalligi shundaki, u mahalliy sharoitga tez moslashadi, katta kapital talab qilmaydi, turli sohalarida faoliyat yuritadi va yoshlar uchun amaliy tajriba maktabi vazifasini bajaradi. Ayniqsa, savdo, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, IT, raqamli marketing va onlayn savdo yo'nalishlari yoshlar bandligini oshirishda keng imkoniyatlarga ega.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, imtiyozli kreditlar, biznes inkubatorlar, kasb-hunarga o'qitish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan choralar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday chora-tadbirlar yoshlarning biznes

boshlashdagi dastlabki to‘siqlarini kamaytiradi va ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qiladi. Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur. Jumladan, yoshlarning moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish, biznes-reja tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish, kreditlardan samarali foydalanishni o‘rgatish, hududlarda infratuzilmani yaxshilash va yosh tadbirkorlar uchun mentorlik tizimini kuchaytirish lozim. Umuman olganda, kichik biznes va tadbirkorlik yoshlar bandligini ta‘minlashning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, u mamlakatda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlar salohiyatidan samarali foydalanish esa O‘zbekistonning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturiga oid hujjatlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari, 2025-yil yanvar–sentabr.
4. Yoshlar ishlari agentligi. Yoshlar bandligi va tadbirkorlik dasturlari bo‘yicha 2025-yil sarhisobi.
5. World Bank. *Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*.
6. World Bank. *Entrepreneurs Bring Jobs and Opportunity to Rural Uzbekistan*, 2026.